

# XORAZM VILOYATI

# STATISTIKA BOSHQARMASI




**ASOSIY KAPITALGA  
INVESTITSIYALAR**

## ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2022-yilda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 8 769,7 mlrd so'mni tashkil qilib, 2021-yilga nisbatan 45,1 % ga kamaydi.

Jami investitsiyalar hajmida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 15,5 % ni yoki 1 362,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 7 407,4 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 84,5 %i o'zlashtirildi.



### Markazlashgan investitsiyalar

**Moliyalashtirish manbalari**

**Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da**

**O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da**

*Respublika byudjeti*

**9,2 %**

**84,4 %**

*Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi*

**1,3 %**

**2,9 m**

*Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi*

**1,2 %**

**46,6 %**

*O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar*

**3,8 %**

**3,9 m**

### Markazlashmagan investitsiyalar

**Moliyalashtirish manbalari**

**Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da**

**O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da**

*Korxona mablag'i*

**22,6 %**

**88,8 %**

*Aholi mablag'lari*

**25,7 %**

**110,9 %**

*To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar*

**28,4 %**

**79,9 %**

*Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarzlar*

**7,7 %**

**95,5 %**

*To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar*

**28,4 %**

**79,9 %**

2022-yilda korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1984,8 mlrd. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 22,6 %ini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 25,7 %i yoki 2 251,5 mlrd. so‘mi o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2 491,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 79,9 %ni, jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 28,4 %ni tashkil etdi.

### Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi, mlrd so‘m

Respublika byudjeti-  
803,9 mlrd. so‘m



Suv ta’minoti va kanalizatsiya  
tizimlarini rivojlantirish  
jamg‘armasi-110,8 mlrd. so‘m



Tiklanish va taraqqiyot  
jamg‘armasi-104,8 mlrd. so‘m



O‘z.Respublikasi kafolati ostida  
xorijiy kreditlar-  
342,8 mlrd. so‘m



Korxona mablag‘lari-  
1 984,8 mlrd. so‘m



Aholi mablag‘lari-  
2 251,5 mlrd. so‘m



To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy  
investitsiyalar va kreditlar-  
2 491,8 mlrd. so‘m



Tijorat bank kreditlari va  
boshqa qarz mablag‘lari-  
679,2 mlrd. so‘m



Shuningdek, tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 679,2 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 7,7 %ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 95,5 %ni tashkil qildi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 342,8 mlrd. so'm (3,9 % va 2,3 m.), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan 2 491,8 mlrd. so'm (28,4 % va 79,9 %), respublika byudjeti mablag'lari hisobidan 803,9 mlrd. so'm ( 9,2 % va 84,4 %), suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan 110,8 mlrd so'm (1,3 % va 2,9m %) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

**2022- yilda shahar va tumanlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**

<b>Shahar va tumanlar</b>	<b>hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>o'sish sur'ati</b>	<b>viloyatdagi ulushi</b>
<b>Urganch shahri</b>	<b>2 463,3 mlrd. so'm</b>	<b>109,5 %</b>	<b>28,1 %</b>
<b>Xiva shahri</b>	<b>418,4 mlrd. so'm</b>	<b>59,7 %</b>	<b>4,8 %</b>
<b>Bog'ot tumani</b>	<b>361,7 mlrd. so'm</b>	<b>74,2 %</b>	<b>4,0 %</b>
<b>Gurlan tumani</b>	<b>462,7 mlrd. so'm</b>	<b>95,7%</b>	<b>5,3 %</b>
<b>Qo'shko'pir tumani</b>	<b>710,6 mlrd. so'm</b>	<b>154,7 %</b>	<b>8,1 %</b>
<b>Urganch tumani</b>	<b>645,3 mlrd. so'm</b>	<b>117,4 %</b>	<b>7,4 %</b>
<b>Hazorasp tumani</b>	<b>486,3 mlrd. so'm</b>	<b>61,2 %</b>	<b>5,5 %</b>

Shahar va tumanlar

hajmi,  
mlrd. so'm

o'sish sur'ati

viloyatdagi  
ulushi

Tuproqqa'l'a tumani

309,4  
mlrd. so'm

72,3 %

3,5 %

Xonqa tumani

691,4  
mlrd. so'm

121,8 %

7,9 %

Xiva tumani

493,3  
mlrd. so'm

108,0 %

5,6 %

Shovot tumani

581,1  
mlrd. so'm

126,9 %

6,6 %

Yangiariq tumani

767,3  
mlrd. so'm

58,8 %

8,7 %


Yangibozor tumani

388,9  
mlrd. so'm

100,9 %

4,4 %


## 2022- yilda investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Qo'shko'pir tumanida – 154,7 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 710,6 mlrd. so'm), Urganch tumanida – 117,4 %


(645,3 mlrd. so‘m), Yangibozor tumanida – 100,9 % (388,9 mlrd. so‘m), Shovot tumanida – 126,9 % (581,1 mlrd. so‘m).

**Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga  
o‘zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so‘m**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning viloyat bo‘yicha yuqori ulushi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Urganch shahrida – 23,5 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2 463,3 mlrd. so‘m), Urganch tumanida - 7,7 % (645,3 mlrd. so‘m), Qo‘shko‘pir tumanida - 11,0 % (710,6 mlrd. so‘m), Xonqa tumanida - 7,5 % (691,4 mlrd. so‘m).


**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga asosiy  
kapitalga investitsiyalar**



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2022- yilda 4 536,7 ming. so'm yoki 92,2 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Urganch shahriga to'g'ri kelib, 13 977,4 ming. so'm ni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 89,8 %ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich Tuproqqa'l'a tumanida 7 511,2 ming. so'm (yoki 96,5 %) va Yangibozor tumanida 5 263,2 ming. so'm (yoki 120,1 %) darajada qayd etildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi,( %da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyatda qurilish-montaj ishlarining ulushi 56,7 %, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari – 36,1 %, boshqa xarajatlarning ulushi 7,2 %ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd. so'm



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 652,7 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 7,7 %, ishlab chiqarish sanoatida – 1 980,6 mlrd. so'm (22,5 %), qurilishda – 525,6 mlrd. so'm (yoki 6,0 %), ulgurji va chakana savdo, avtotransport vositalari va mototsikllarni ta'mirlashda – 449,6 mlrd. so'm (yoki 6,0 %), ta'limda – 346,9 mlrd. so'm (yoki 4,0 %), uy-joy qurilishida – 525,6 mlrd. so'm (yoki 6,0 %) va boshqa faoliyat turlarida – 4358,8 mlrd. so'm (yoki 25,1 %).

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2022- yilda 2 834,6 mlrd. so'm o'zlashtirilib (dollar ekvivalentida 259,1 mln AQSH dollarri), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 90,9 %ni tashkil qildi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy tarkibida xorijiy investitsiyalar 2 834,6 mlrd. so'mni tashkil etdi, shuningdek, 1 698,3 mlrd. so'm xorijiy kreditlarga to'g'ri keldi.

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 983,5 mlrd. so'mni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 342,8 mlrd. so'mni, boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar – 1508,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Urganch shahriga to'g'ri kelib 21,7 %ni ta'minladi, bu ko'rsatkich Yangiariq 15,9 %, Qo'shko'pir tumanida – 13,2 %, Shovot tumanida -11,3 % darajada kuzatildi.




**Xorijiy investitsiya va kreditlar**

	<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, mlrd. so'm</i>		<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, nisbatan %da</i>	
	<i>Jami:</i>	<i>Shu jumladan, kreditlar:</i>	<i>Jamiga:</i>	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar:</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2 834,6</b>	<b>1 698,2</b>	<b>100,0</b>	<b>19,1</b>

<i>shahar va tumanlar:</i>				
Urganch sh.	554,3	247,1	19.6	9,8
Xiva sh.	156,3	84,3	5,5	19,8
Bog'ot	22,6	22,6	0.8	6,4
Gurlan	91,0	79,5	3.2	17,0
Qo'shko'pir	373,9	373,9	13,2	52,3
Urganch	180,1	149,9	6.4	22,9
Hazorasp	72,3	72,3	2,5	14,6
Tuproqqal'a	73,5	73,5	2.6	22,6
Xonqa	249,0	242,1	8.8	34,5
Xiva	178,7	178,7	6.3	35,9
Shovot	319,8	3,2	11,3	0,6
Yangiariq	451,5	59,5	15.9	7,7
Yangibozor	111,6	111,6	3,9	28,3

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 19,1 %ni tashkil qildi.

**Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish (mlrd. so'm)**



Jami o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiyligi hajmiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 3,9 % yoki 342,8 mlrd. so'mni, xorijiy investitsiya va kreditlar – 90,9 % yoki 2834,6 mlrd. so'mni, shundan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya 983,5 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi  
Nashr uchun mas’ul: G.Xaitbayeva  
Telefon: (62) 224-65-22**